



TURIZM PEDAGOGIKASINING TAMOYILLARI VA NAZARIY YONDASHUVLARI

Eshchnova Xolida Xudayarovna

Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10276188>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2023

Accepted: 29th November 2023

Online: 30th November 2023

KEY WORDS

Turizm, turizm pedagogikasi, tamoyil, ta'lim usullari, ijtimoiy-madaniy faoliyat, model, modellastirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada turizm faoliyatining mohiyati va asosiy xususiyatlari aks ettirilgan va shunga mos ravishda turizm sohasidagi mutaxassislarga sayohatning turli turlari va shakllarini tashkil etish va o'tkazish, turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha aniq uslubiy, nazariy tavsiyalar berilgan.

Zamonaviy integratsiyalashgan dunyoda turizm nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirishda, shu bilan birgalikda o'quvchi shaxsining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Turizm o'zining boy mazmuniga ega bo'lib, shaxsda o'z-o'ziga xizmat qilish, turli to'siqlar va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, bilim, ko'nikma, qobiliyatlarni sinash umumiy qilib aytganda, o'z-o'zini tarbiyalashning ajoyib vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5611-sonli[2], 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] farmonlari nafaqat mazkur sohani, shu bilan birga turizm pedagogikasini rivojlantirish uchun turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda turizm pedagogikasi pedagogikaning alohida yo'nalishi sifatida shakllanmoqda va ta'lim tamoyillari va nazariy asoslariga ega.

Turizm pedagogikasi tamoyillari - bu turizmda shaxsni tarbiyalash bo'yicha ishning maqsadi, g'oyalari, mazmuni, uslubi va tashkil etilishini belgilaydigan umumiy qoidalar. Bir-biri bilan chambarchas bog'langan ta'lim tamoyillari yaxlit tizimni yaratadi. Bir tamoyilni amalga oshirish boshqasini amalga oshirish bilan bog'liq. Ularning barchasi turizm faoliyatining mohiyati va asosiy xususiyatlarini aks ettiradi va shunga mos ravishda turizm sohasidagi mutaxassisga sayohatning turli turlari va shakllarini tashkil etish va o'tkazish, turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha aniq uslubiy, nazariy, uslubiy tavsiyalar beradi.



Turizmda ta'limning asosi - bu shaxslarning o'zini-o'zi takomillashtirishga bo'lgan faolligi va qiziqishi, turizm subyektlarining doimiy o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatini rag'batlantirish.

Turizmda tegishli ta'limning usullaridan foydalanish uni samaradorligini taminlaydi. Ular turizmdagi ta'lim jarayonining o'zagi bo'lgan turizm faoliyati subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Zamonaviy samarali usullarsiz, pedagogika fanining eng so'nggi yutuqlari va ta'lim amaliyotisiz eng yaxshi maqsad va g'oyalarni amalga oshirish mumkin emas.

"Turizmda ta'lim usullari" turkumi turizm subyektlari o'rtasidagi madaniy niyatlar, me'yorlar va munosib xulq-atvor huquqlarini o'zlashtirishga, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga, umuminsoniy, milliy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan birgalikdagi o'zaro bog'liqlik yo'llarini bildiradi, bu turizm pedagogikasining maqsadlari bilan belgilanadi.

Turizm sohasi mutaxassislar tomonidan ta'limning tegishli usullarini tanlash turizm faoliyati ishtirokchisiga tarbiyaviy tasirning maqsadlari, mazmuni va xususiyatlariga, soha mutaxassisining pedagogik mahoratiga, shuningdek, turizmning o'ziga xos holatlari va sharoitlarining uslubiy jihatdan maqbul kombinasiyasiga bog'liq. Turizm xodimlarining kasbiy malakasi mavjud amaliyot, jahon tajribasi va mehmondo'stlik standartlari bo'yicha ham umumiy, ham maxsus tayyorgarlikka bog'liq.

Turizm sohasi mutaxassislarining yuqori malakali bo'lishi uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- kadrlar tayyorlash mazmunining kelajakdagi kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligi;
- o'qitishning ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liqligi;
- nazariy kurslarning amaliy fanlar bilan aloqasi;
- universitetda o'qish bilan birga ish joyida uzoq muddatli amaliyot o'tash.

Avvalo, turizm globallashtirish omili, ya'ni chegaralarning ochiqligi va xalqaro savdo, aloqalar ko'lamining kengayishi hisobiga doimiy ravishda o'sib borayotgan mamlakatlarning o'zaro bog'liqligidir. Shu bilan birga, globallashtirish biznes jarayonlarini, ishlab chiqarish usullarini, axborotni uzatish shakllarini standartlashtirishni va raqamli makonni kengaytirishni taminlaydi. Bu hodisa ham o'troq turmush tarzini yo'q qilishga yordam beradi va shu bilan birga aholining hayot iqbollarini kengaytiradi, ayni paytda turizm xalqaro aloqalar va qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.

Turizm jamiyatni axborotlashtirish omili sifatida ham ishlaydi. U nafaqat turizm tashkilotlari faoliyatining asoslarini belgilab beradi, balki turizmga oid ma'lumotlarni tezkor, chuqur, ko'rgazmali olish imkonini beradi. Internet orqali sayohat xizmatlarini bron qilish butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar uchun odatiy ijtimoiy amaliyotga aylanib bormoqda. Fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, ularni turizm sohasiga joriy etish va foydalanish turistik oqimlarning harakatchanligini oshirib, turizmning kosmik turizm kabi yangi turlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Shunday qilib, turizm zamonaviy jamiyatning ijobiy globallashtirishining muhim omili bo'lib, madaniyatlar qarama-qarshiligini ularning muloqotiga aylantirishga, tabiiy va madaniy merosni saqlashga hissa qo'shadi, ijtimoiy bandlikning yangi yo'nalishlarini va boshqa sohalardan ko'ra ko'proq ijtimoiy hodisalarni yaratadi, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va ishonchni taminlash salohiyatiga ega.



Turizm ijtimoiy-madaniy faoliyatning tarbiyaviy hodisasi sifatida.

Zamonaviy dunyoda turli madaniyatlarda to'plangan bilim va pedagogik tajribaning integratsiyasi muqarrar. Bu jarayonni amalga oshirishda turizmning o'rni katta. Shaxs rivojlanishining ijtimoiy holatini tavsiflashda tashqi sharoitlarning ta'siri ta'kidlanadi, bu turli avlod maktab o'quvchilarining rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni tushuntirishga imkon beradi. Shaxsdagi bu xususiyatlar ta'lim va tarbiyaning yangi shakl va usullarini izlash zarurligini taqozo etadi. Pedagogik jarayonlarning mohiyati muammosini tahlil qilishda ma'lum xususiyatlarga bo'lgan ijtimoiy-madaniy talab aniqlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turizm madaniyati juda keng tushuncha va bag'oyat murakkab muammo bo'lib, taxminan quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

- qanday joyga borishni tanlay olish;
- sayohat qilganda nimalarga e'tibor berish va nimalarni esda saqlab qolish;
- kerakli ma'lumotlarni qayerdan, qanday, qaysi vositalardan foydalanib topish;
- sayyohlik ko'nikmasini odatlantirish;

Turistik faoliyat bilan bog'liq muammoni hal qilish hozirgi vaqtda o'zaro bog'liq bo'lmagan barcha resurslarni turizm sohasidagi davlat tomonidan ijtimoiy yo'naltirilgan madaniyat siyosati doirasida tizimli ravishda mustahkamlash va birlashtirish va ulardan foydalanishni eng muhim milliy vazifalardan birini hal qilishga yo'naltirish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda turistik faoliyatga to'siq bo'luvchi muammolariga doimo e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, XXI-asrda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga va aholi o'rtasida turizm madaniyatini yuqori darajada shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Natijada jamiyatimizda, turizm ijtimoiy-madaniy faoliyatning tarbiyaviy hodisasi sifatida qaralmoqda.

Turizm ta'lim faoliyatini modellashtirishning uslubiy yondashuvlari va tamoyillari.

Model tushunchasi lotincha "modelus" so'zidan olingan bo'lib, tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma sifatida tushuniladiki, unga muayyan obyekt haqida ma'lumotlar kiritilganda hosila sifatida yana shu obyekt yuzaga keladi.

Boshqacharoq tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o'xshashi, taqlidi, tabiiy ko'rinishidir), u o'zbek tilidagi qolip, andoza so'zlariga mos keladi. U hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o'taydi va aniq yoki mavhum obyektlar, kichraytirilgan obyektlar va sxemalarda tadqiq etiladi. Buni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, olmani xarakterlovchi belgilar, atributlar – uning dumaloqligi, mevaligi, shirinligi kabilar o'sha tushunchaning fikriy modeli hisoblanadi. Agar biz olmani loydan yoki sun'iy bir materiallardan yasasak, bu uning moddiy modeli hisoblanadi.

Model quyidagi asoslarga ko'ra bilishda muhim hisoblanadi:

Birinchidan modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod hisoblanadi va u quyidagi tamoyillarga amal qiladi: deduktivlik – mantiqiy xulosa chiqarishga asoslangan hamda xususiylikdan umumiylikka tamoyilida bo'ladi; tafakkur eksperimentidan foydalanish - modelni ideallashtirilgan obyekt sifatida talqin qilishdan iborat bo'ladi.



Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonini modellashtirish nazariyasida beshta asosiy yondashuv mavjud:

1. Kasbiy va mazmunli: ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-ekologik xarakterdagi vaziyat modelida ijtimoiy amaliyot, kasbiy tayyorgarlikdan oldingi tayyorgarlik va o'quv-amaliy faoliyat davrida o'rganishning mohiyati.

2. Yo'naltirilgan: o'quvchini individual ta'lim yo'nalishiga yo'naltirish jarayoni, o'qituvchini ijtimoiy davrda individual psixofiziologik shartlarga yo'naltirish.

3. Tartibga solish-nazorat: shahar ijtimoiy va ishlab chiqarish tuzilmasida o'qitish, amaliyotni tartibga solish va o'z-o'zini tartibga solish jarayoni; o'quvchilarning yutuqlarini bir vaqtning o'zida kompleks diagnostika qilish va yutuqlarni o'z-o'zini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

4. Motivatsion: o'quv, o'quv-amaliy, o'quv-ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, ixtirochilik faoliyatini rag'batlantirish va unga bo'lgan qiziqishni musobaqalarda, olimpiadalarda, festivallarda, chempionatlarda, albomlar, ko'rgazmalar tayyorlashda va hokazolarda saqlash.

5. O'qitish: umumiy ta'lim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish jarayoni; individual loyihalar ustida ishlash va ularni himoya qilish ko'nikmalari, kompyuter vositalari bilan ishlash ko'nikmalari, kasbiy ko'nikmalar, ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari.

Ob'ektning har qanday modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, u ushbu ob'ektda tajribalarsiz har qanday o'zgarishlarning oqibatlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin. Ma'lum ma'noda model rejalashtirish, qaror qabul qilish va boshqarish jarayonlarida ob'ektning o'zini almashtiradi.

Turizm sohasida "modellashtirish" kasbiy tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish xususiyatlari va yo'nalishlarini aniqlash va aniqlashtirish uchun modellarni qurish, o'rganish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Turizmda modellar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- modeldagi tadqiqotlar kasbiy faoliyat to'g'risida yangi bilimlarga ega bo'lishiga imkon berish uchun ob'ektni almashtirish sifatida foydalanish;
- umumiy empirik bilimlarga yordam berish, turizm sohasidagi turli jarayonlar va hodisalarning tabiiy aloqalarini aniqlash;
- modellar eksperimental sinovdan o'tgan ishlarning amaliy sohaga aylanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jarayonning samarali tashkil etilishida fanning nazariy asoslarini mukammal shakllantirish bilan birga mahoratli pedagog- mutaxassislarni tayyorlash ham dolzarb masaladir. Turizm pedagogikasi fanidan ta'lim beruvchi pedagog kasbiy malakasining tarkibiy qismini pedagogik mahorat, pedagogik san'at tashkil etadi. Mutaxassisning pedagogik mahoratiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mutaxassislik bo'yicha yetarlicha bilim;
- tahlil qilish, obrazli fikrlash qobiliyati;
- ta'lim oluvchilar ruhiyatini tushunish;
- guruhni boshqara olish;
- pedagogik texnika sohasidan bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;
- jarayonni oldindan his qilish;
- ta'lim oluvchi shaxsiyatini hurmat qilish;
- tarbiya maqsadida pedagogik vositalarni qo'llay olish.



Demak, turizm pedagogikasi, turizm nazariyasi va amaliyotining shakllanishi, pedagogik nazariya va ta'lim amaliyotida sezilarli o'zgarishlar mavjudligi sharoitida ushbu muammoning har bir tadqiqotchisi uslubiy ko'rsatmalar berishi kerak. Turizm pedagogikasi tarkibida turizm pedagogikasining uslubiy asoslari, turistik ta'lim va o'qitish metodologiyasi, turistik ta'limni boshqarish metodologiyasi muhim o'rin tutishi kerak.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5611-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni
4. А.А.Остапец. Педагогика и психология туристско-краеведческой деятельности учащихся: Методические рекомендации. –М.,ПМАТ, 2001.-87 с
5. Norchayev A.N., Umirova D.S. Ekskursiya xizmatini tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. - 202 bet.